

Amaliy tadqiqotlar tanlovi mavzusi

“Texnika fanlari” yo‘nalishi

Loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
Ferrosilitsiy ishlab chiqarishda hosil bo‘ladigan mikro kremniy changidan yangi turdagi import o‘rnini bosuvchi mahsulotlar olish texnologiyasini ishlab chiqish 	Tadqiqot shakli: Amaliy. Ilmiy tadqiqot natijalari: - mikro kremniy changining fizik-kimyoviy xususiyatlari, kimyoviy tarkibi batafsil o‘rganiladi; - tadqiqotlar natijasida ushbu aralashmalarni ajratish va tozalashning optimal sharoitlari ishlab chiqiladi; - taklif etilgan texnologiya asosida mikro kremniy changdan yuqori dispersli amorf kremniy dioksidi, mikrosilika qo‘shimchasi, bog‘lovchi komponentlar hamda kompozitsion materiallar olish imkoniyati tajribaviy jihatdan asoslanadi; - tajriba-sanoat sharoitida olingan mahsulotlar import o‘rnini bosuvchi materiallar sifatida sinovdan o‘tkaziladi; - ishlab chiqilgan texnologiya bo‘yicha texnik reglament, jarayon sxemasi va pilot uskunarlar zanjiri ishlab chiqilib, bu sanoat korxonalarida chiqindisiz texnologiya tamoyilini amalda joriy etish imkonini yaratadi. Natijalarni sinovdan o‘tkazish. Olingan natijalar “Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” AJ yoki “O‘zmetkombinat” AJ tizimidagi korxonalarda sinovdan o‘tkaziladi va ularning amaliyotda foydalanish uchun qabul qilinganligi to‘g‘risida “Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” AJ yoki “O‘zmetkombinat” AJning xulosasi olinadi. Ilmiy natijalarni chop etish. Olingan tadqiqot natijalari intellektual mulk obyektlari uchun hujjatlar tayyorlanadi. Tadqiqot natijalari asosida tavsiyanomalar, o‘quv qo‘llanmalar, hamda nufuzli jurnallarda va <i>Web of Science/Scopus</i> ma’lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda maqolalar chop etiladi Izoh. Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar “Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” AJ yoki “O‘zmetkombinat” AJning qo‘llab-quvvatlash xati mavjud bo‘lganida qabul qilinadi.